



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2024 - yil « 26 » iyun

220 -son

Toshkent shahri

“Aksilkorrupsiya kovorking” markazlari
konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Fapmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturining 19-bandida ko‘rsatilgan vazifalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 26-yanvardagi 12-son qarori bilan tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi ta‘lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturini O‘zbekistonda keng joriy etish bo‘yicha Yo‘l xaritasi” 10-bandi talablari ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi davlat oliy ta‘lim muassasalarining “Aksilkorrupsiya kovorking” markazlari konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda – konsepsiya) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat oliy ta‘lim muassasalari rektorlari:

2024-yil sentyabr oyidan “Aksilkorrupsiya kovorking” markazlarini tashkil etish va ular faoliyatini konsepsiyaga muvofiq yo‘lga qo‘yilishini ta‘minlasin;

“Aksilkorrupsiya kovorking” markazlari a‘zolarini tayinlash to‘g‘risidagi ichki buyruq qabul qilinsin. Bunda, markaz a‘zolari bir o‘quv yili muddatiga tayinlanishi va uning tarkibiga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘linmalari (ichki komplaens-nazorati) xodimlari kiritilmasligi inobatga olinsin;

“Aksilkorrupsiya kovorking” markazlari faoliyatini hamda belgilangan vazifalarning samarali bajarilishini tashkillashtirish uchun xizmat xonasi va zaruriy jihozlar ajratilsin.

3. Mazkur buyruq ijrosi nazorati vazir o‘rinbosari S.Buzrukxonov zimmasiga yuklansin.

Vazir



K.Sharipov

NUSXA
ASLIGA TO‘G‘RI

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining 2024-yil 26-iyundagi
122 -son buyrug'iga
ilov



O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Davlat oliy ta'lim muassasalarining “Aksilkorrupsiya kovorking” markazlari KONSEPSIYASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi Davlat oliy ta'lim muassasalarining “Aksilkorrupsiya kovorking” markazlari konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 26-yanvardagi 12-son bayonnomasi ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida” O'RQ-419-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-200-son Farmoni hamda 2021-yil 7-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ-5177-son qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Konsepsiya korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, jumladan:

- O'zbekiston Respublikasining “Transparency International” xalqaro tashkiloti tomonidan e'lon qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro reytingi bo'yicha jahonning ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish;

- uzlyuksiz ta'lim tizimini sifat jihatidan yaxshilash va halol, vatanparvar kadrlarni tayyorlash;

- ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

- ta'lim tizimiga korrupsiyaga qarshi kurashishga oid zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;
- yoshlarni halollik ruhida tarbiyalash va ularni korrupsiyaga qarshi kurashishga doir zamonaviy usullari va yo'nalishlari bilan tanishtirib borish;
- korrupsiyaga qarshi kurashishga oid bilimlar bellashuvi tashkil etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

2-bob. Oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimiga kiruvchi oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limlari tashkil etilgan. Mazkur bo'limlar ilm-fan, ta'lim va innovatsiyalar sohasida korrupsiyaviy omillarning bartaraf etishda keng qamrovli ishlarni amalga oshiradi.

4. Talabalar va pedagog xodimlar orasida ta'lim jarayonining shaffofligi va ochiqqligini ta'minlashga qaratilgan anonim so'rov tadbirlari o'tkaziladi.

5. Talabalar hamda professor-o'qituvchilar ishtirokida "Korrupsiya va unga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish" mavzusida profilaktik mazmundagi targ'ibot-tashviqot tadbirlari muntazam o'tkazib kelinadi.

6. Talabalarning ota-onalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy hokimliklar xodimlari, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari va boshqa jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida oliy ta'lim muassasalarida "Ochiq eshiklar kuni" tadbirlari o'tkaziladi.

7. Oliy ta'lim muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish "komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limlari tomonidan korrupsiya alomatlari mavjud bo'lgan huquqbuzarlik holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlari o'tkazilib, bu haqda huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga tegishli materiallar taqdim qilinadi.

8. Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik sohasida ichki rotasiya choralari doimiy ravishda qo'llaniladi.

9. Jamiyatda korrupsiyaning salbiy oqibatlarini aks ettiruvchi videorolik hamda matn ko‘rinishidagi materiallar oliy ta‘lim muassasalarining rasmiy veb-saytlariga va ijtimoiy tarmoqlardagi telegram kanallariga joylashtirilib kelinadi.

10. Oliy ta‘lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning borishi va natijasi xususida video va nashr materiallari ommaviy axborot vositalari orqali aholiga yetkaziladi.

11. Ishga qabul qilinayotgan professor-o‘qituvchi va xodimlarga oliy ta‘lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limlari tomonidan korrupsiyaning oqibatlari, xizmat vazifasiga qo‘yiladigan asosiy majburiyatlar, ta‘qiqqlar, cheklovlar, talablar, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va odob-axloq qoidalarining mazmun-mohiyati haqida tushuntiriladi.

12. Korrupsiyaga qarshi kurashish, ichki audit va boshqa sohalardan jalb qilingan mutaxassislardan iborat tuzilgan ishchi guruhlarini tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish hamda fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini ochiqlik va shaffofligini ta‘minlash bo‘yicha nazorat tadbirlari amalga oshiriladi.

13. Oliy ta‘lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limlari xodimlarini malakasini oshirish uchun Bosh ilmiy-metodik markazida 36 soatlik maxsus o‘quv kursi tashkil qilingan.

14. Talabalar va xodimlardan korrupsiyaviy holatlar xususida murojaatlarning kelib tushishini ta‘minlash maqsadida oliy ta‘lim muassasalari kesimida telegram-bot kanallari yo‘lga qo‘yilgan.

15. Oliy ta‘lim muassasalarining o‘quv binolarida “Adolat qutilari” o‘rnatilgan.

3-bob. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining “Aksilkorrupsiya kovorking” markazlari faoliyatining asosiy maqsad va vazifalari

16. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining “Aksilkorrupsiya kovorking” markazlari (keyingi o‘rinlarda — Markaz) faoliyatining maqsadi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiya

xavflarini oldini olish, axloqiylik va halollikni ta'minlashda yoshlarda korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatni shakllantirish. Shuningdek, oliy va professional ta'lim muassasalari talabalari va professor-o'qituvchilari o'rtasida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan siyosat va normativ-huquqiy hujjatlarning mazmunini tushuntirish, samaradorligini oshirishda yordam berishdan iborat.

17. Mazkur maqsadga erishish uchun Markaz quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan qonun hujjatlarining natijadorligi va samaradorligi to'g'risida yoshlar va aholining xabardorligini oshirish;

- oliy va professional ta'lim muassasalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan turli tadbirlar va o'quv kurslarida faol ishtirok etish;

- "Korrupsiyaga qarshi xalqaro konvensiya"si, korrupsiyaning oldini olish va bartaraf etishga oid xorijiy davlatlar tajribasi, shuningdek, ushbu yo'nalishda xalqaro tarjibalarni o'rganish va uni Markaz a'zolari o'rtasida muhokama etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi targ'ibot-tashviqot ishlariga ko'maklashish va unda talaba-yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash;

- Markaz ichki tartib-qoidalarini amalga oshirish yuzasidan ilg'or tajriba asosida, talaba-yoshlar o'rtasida trening va master-klasslar o'tkazish;

- ta'lim sohasida shaffoflik va ochiqlikni ta'minlashda oliy ta'lim muassasasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga yaqindan yordam berish;

- talaba-yoshlar o'rtasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazoratining samarali tizimini shakllantirish, "Yoshlar-jamoatchilik monitoringi" kabi ta'sirchan zamonaviy nazoratni amalga oshirishda ko'maklashish;

- Markaz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning natijalarini tahlil qilish, ularning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- “GRACE” dasturi materiallaridan foydalangan holda ta’lim sohasida korrupsiyaning oldini olish va halollikni targ‘ib qilishga qaratilgan tadbirlarni tizimli tashkil etib borish;

- oliy ta’lim muassasalarining “Yoshlar klublari” va “Aksilkorrupsiya kovorking” markazlari a’zolarini jalb qilgan holda “GRACE” dasturi materiallari asosida korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini o‘tkazish amaliyotini joriy etish;

- soha mutaxassislarini jalb qilgan holda, oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlari, professor-o‘qituvchilari orasida halollikni targ‘ib etuvchi tadbirlarini (intervyu, flesh-moblar, turli aksiyalar) tashkil qilish;

- “Talaba-yoshlar halollik tarafdori”, “Halollik va poklik”, “Korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha profilaktika kunlari”, “Halollik qadriyatlari”, “To‘g‘rilik, mehnatsevarlik xotirjam hayot asosi”, “Korrupsiya – davlatni yemiruvchi, insonni tubanlashtiruvchi illat” kabi mavzularida davra-suhbatlari, bahs-munozara va treninglar, targ‘ibot-tashviqot tadbirlari o‘tkazilishini yo‘lga qo‘yish;

- ta’lim sohasida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etishda yoshlarning roli haqida jamoatchilikning xabardorligini oshirish;

- Markaz a’zolari ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan tadbirlar va erishilgan natijalar haqida vazirlikning rasmiy veb-saytiga doimiy tarzda materiallar joylashtirib borilishini ta’minlash;

- ilmiy maqolalar va videoroliklar tayyorlab, mahalliy va respublika ommaviy axborot vositalari orqali ommaga yetkazish;

- Markaz o‘z faoliyatiga doir masalalar, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- oliy ta’lim muassasalarining iqtidorli va faol talabalari ishtirokida “ta’lim muassasasi–viloyat–respublika” tizimi asosida bilimlar bellashuvini tashkil etish;

- Markaz o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiya, forum, seminar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish singari vazifalarni bajaradi.

18. Markaz o'z faoliyatida quyidagilarga amal qiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga;

- jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga aloqadorligi to'g'risida tasdiqlanmagan ma'lumotlarni tarqatmasligi hamda aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga amal qilishi;

- oliy ta'lim muassasa nomidan intervyu berish, uchrashuvlar o'tkazish va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etish uchun oliy ta'lim muassasaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limini xabardor qilgan holda va tegishli ruxsat asosida amalga oshirish.

Yuqoridagi talablarni bajarish Markazning barcha a'zolar uchun majburiydir.

4-bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

19. Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali oliy ta'lim tizimida quyidagi ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

- korrupsiyani oldini olish va halollikni targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlarni tizimli tashkil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashishga oid fikrlarning jamlanishi, yangi g'oyalarni vujudga kelishi va ularni amalga oshirish;

- korrupsiyaning kamayishi, xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egalash;

- yoshlarda korrupsiyaga qarshi kurashishda murosasizlik madaniyatini shakllantirishda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish zamonaviy bilimlarni o'rganish, innovatsion ishlanmalarni yaratilishi;

- korrupsiyaga qarshi kurashishga mo'ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodlari tayyorlash;

- korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazorati kuchaytiriladi, metodik yordam ko'rsatish maqsadida elektron resurslar yaratish;

- ta'lim tizimini yanada raqamlashtirish.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

20. Markazning faoliyati O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari hamda ushbu Nizomga zid bo'lmasligi lozim.

21. Markazning qarorlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.